

PRESS-RELIZ

30.07.2026 -yil

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan Kattaqo'rg'on shahridagi ta'lim muassasalariga press-tur tashkil etildi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi arafasida Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan ommaviy axborot vositalari va bloggerlar ishtirokida Kattaqo'rg'on shahridagi ta'lim muassasalariga press-tur tashkil etildi.

Press-tur davomida Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Rustam Yo'ldoshev ishtirokchilarga viloyatda keyingi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy o'quv muhitini yaratish, sohada erishilgan natijalar hamda ta'lim sifatini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda Samarqand viloyati ta'lim tizimi aholini sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash imkonini beruvchi keng qamrovli infratuzilmaga ega. Viloyatda **1 278** ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, **782** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, **169** ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda **3 293** ta oilaviy bog'cha faoliyat yuritmoqda.

Mustaqillik yillarida ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 35 yil davomida **21** ta yangi umumta'lim maktabi qurildi, **852** ta maktab rekonstruksiya qilindi, **248** ta maktab mukammal ta'mirlandi, **398** ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti barpo etildi, **169** ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'cha tashkil etildi hamda **3 293** ta oilaviy bog'cha faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa, 2016-yildan buyon ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda **21** ta yangi maktab, **227** ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi, **557** ta maktab va **216** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rekonstruksiya qilindi, **184** ta maktab mukammal ta'mirlandi. Shuningdek, **169** ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'cha tashkil etildi va **3 293** ta oilaviy bog'cha faoliyati yo'lga qo'yildi.

Press-tur ishtirokchilariga Kattaqo'rg'on shahri ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar haqida ham atroflicha ma'lumot berildi. Bugungi kunda shaharda **17** ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, **25** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, **34** ta

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, jumladan **3** ta xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti, **4** ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'cha va **27** ta oilaviy bog'cha faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida shaharda **1** ta yangi umumta'lim maktabi qurildi, **6** ta maktab rekonstruksiya qilindi, **4** ta maktab mukammal ta'mirlandi hamda **1** ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti barpo etildi.

So'nggi yillarda Kattaqo'rg'on shahrida ham ta'lim sohasida salmoqli o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, **2016**-yildan buyon **3** ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti qurildi, **9** ta maktab va **9** ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rekonstruksiya qilindi, **6** ta maktab mukammal ta'mirlandi, **3** ta xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda **4** ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'cha tashkil etildi, **27** ta oilaviy bog'cha faoliyati yo'lga qo'yildi.

Press-tur davomida ommaviy axborot vositalari vakillari hamda bloggerlar ta'lim muassasalarida yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar uchun tashkil etilgan imkoniyatlar, amalga oshirilayotgan qurilish va rekonstruksiya ishlari bilan yaqindan tanishdilar.

Tadbir yakunida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda inson kapitaliga investitsiya kiritish, ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar Samarqand viloyatida izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining **35** yilligi munosabati bilan erishilayotgan bu natijalar ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati samaradorligining yana bir amaliy ifodasidir.

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati